

**“Farg’ona Dori-Darmon” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining
navbatdan tashqari umumiy yig’ilishi**
B A Y O N I

Umumiy yig’ilish o’tkazilgan sana: 12 oktyabr 2023 yil
Umumiy yig’ilish o’tkazilgan vaqt: soat 10⁰⁰.

Umumiy yig’ilish o’tkazilgan joy: Qo’qon shaxar, Turon ko’chasi , 76- uy.

Jamiyatning ovoz berish xuquqiga ega bo’lgan jami aksiyalari soni: 1 748 750 dona.

Umumiy yig’ilishda ishtirok etayotgan ovozlar soni: 1 261 880 dona.

Umumiy yig’ilish kvorumi: 72,1 %.

Umumiy yig’ilish bayoni tuzilgan sana: 16 oktyabr 2023 yil

Yig’ilish raisi: I.Komilov.

Yig’ilish kotibi: A.Nuritdinov.

KUN TARTIBI:

1. *Umumiy yig’ilishi Reglamentini hamda sanoq komissiyasi a’zolari soni va tarkibini tasdiqlash.*
2. *Jamiyat aksiyadorlarining 2022 yil yakunlari bo’yicha 2023 yil 22 iyun kuni o’tkazilgan navbatdagi umumiy yig’ilishida 7-masala “2022 yil moliyaviy-xo’jalik faoliyati yakunlari bo’yicha olingan sof foydani taqsimlash, dividend miqdori, uni to’lash shakli, tartibi va muddatlarini belgilash” yuzasidan qabul qilingan qarorni qayta ko’rib chiqish.*
3. *Jamiyat aksiyadorlarining 2022 yil yakunlari bo’yicha 2023 yil 22 iyun kuni o’tkazilgan navbatdagi umumiy yig’ilishidagi 16-masalasi “Jamiyatning o’tgan yillardagi taqsimlanmagan foydasi va 2022 yil yakuni bo’yicha olingan sof foyda hisobidan ustav fondini kapitalizasiya yo’li bilan oshirish” yuzasidan qabul qilingan qarorni bekor qilish.*
4. *Jamiyat aksiyadorlarining 2022 yil yakunlari bo’yicha 2023 yil 22 iyun kuni o’tkazilgan navbatdagi umumiy yig’ilishidagi 17-masalasi “Qo’shimcha aksiyalar chiqarish to’g’risida qaror qabul qilish, aksiyalarni joylashtirish tartibi va shartlarini belgilash. Qo’shimcha aksiyalar chiqarilishi to’g’risidagi qarorni tasdiqlash” yuzasidan qabul qilingan qarorni bekor qilish.*
5. *Jamiyat ijro organi a’zolari tarkibiga qo’shimcha va o’zgartirishlar kiritish.*

Yig’ilish avvalida umumiy yig’ilishda «Farg’ona Dori-Darmon» AJ Kuzatuv Kengashi raisi I.Komilov kirish so’zi bilan ochib **kun tartibidagi 1-masala**, umumiy yig’ilish reglamentini hamda sanoq komissiyasi a’zolari soni va tarkibini tasdiqlash masalasi yuzasidan so’z yuritdi.

Jumladan, u amaldagi qonunchilik talablariga ko’ra umumiy yig’ilish reglamenti tasdiqlanishi hamda sanoq komissiyasining tarkibi saylanishi lozimligini ta’kidlab, reglamenti o’qib eshittirdi, shuningdek, sanoq komissiyasi raisi va a’zoligiga tavsiya qilingan nomzodlar – Abdullayeva Gulzoda, Abdullayeva Umidaxon, Muxamadaminov Najmiddinlarni yig’ilish qatnashchilariga tanishtirdi.

Shundan so’ng quyidagi tartibdagi umumiy yig’ilish reglamenti bir ovozdan tasdiqlandi:
Jamiyat aksiyadorlari navbatdan tashqari umumiy yig’ilishining reglamenti quyidagicha tasdiqlansin:

- asosiy masalalar bo’yicha ma’ruzalar – 10 daqiqagacha;
- qo’shimcha ma’ruzalar, munozara va muhokamalar uchun – 5 daqiqagacha;
- sanoq komissiyasi tomonidan ovoz berish yakunlarini hisoblab chiqilgunga qadar tanaffus – 15 daqiqagacha;
- ovoz berish yakunlarini e’lon qilish va yig’ilishni yakunlash uchun – 15 daqiqagacha.

Turli xil savollarga 15 daqiqa vaqt beriladi.

Jami yig’ilish uchun – 1 soat.

Shuningdek, sanoq komissiyasi raisi va a'zoligiga tavsija kilingan quyidagi nomzodlar bir ovozdan tasdiqlandi:

Abdullayeva Gulzoda – sanoq komissiyasi raisi;
Abdullayeva Umidaxon – sanoq komissiyasi a'zosi;
Muxamadaminov Najmuddin – sanoq komissiyasi a'zosi.

So'z sanoq komissiyasi raisi G.Abdullayevaga berildi. Sanoq komissiyasi raisi o'z so'zida jamiyat aksiyalari nominal qiymati 3000 so'mdan bo'lган 1 748 750 dona oddiy va 12 600 dona imtiyozli aksiyalardan iborat ekani, imtiyozli aksiyalar qonunchilik talabiga ko'ra ovoz berish huquqiga ega emasligi, jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining umumiyligi soni 1 748 750 dona ekanini ma'lum qildi. Shuningdek, u bugungi yig'ilishga joylardagi aksiyadorlar va ularning vakillari bo'lган 1 261 880 dona ovoz beruvchi aksiyalarining egalari qatnashayotganligini aytib o'tdi.

G.Abdullayeva o'z xisobotida kvorum 72,1 foizni tashkil etganligi va umumiyligi yig'ilish vakolatli (kvorum to'plangan) ekanligini ma'lum qildi.

Shuningdek, u ovoz berish byulleteni orqali ovoz berish tartibini tushuntirdi.
Shundan so'ng Kuzatuv Kengash raisi I.Komilov – yig'ilish raisi, Kuzatuv Kengashi kotibi – A.Nuritdinov yig'ilish kotibi etib saylandi.

Kun tartibidagi 2-masala. Jamiyat Boshqaruv raisi M.Tursunov:

- Jamiyat aksiyadorlarining 2022 yil yakunlari bo'yicha 2023 yil 22 iyun kuni o'tkazilgan navbatdagagi umumiyligi yig'ilishining 7-masalasi "2022 yil moliyaviy-xo'jalik faoliyati yakunlari bo'yicha olingan sof foydani taqsimlash, dividend miqdori, uni to'lash shakli, tartibi va muddatlarini belgilash" yuzasidan qabul qilingan qaror ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumot berdi.

Jumladan: Jamiyatning 2022 yil yakuni buyicha olingan sof foydasi – 1 915 273 100 so'm bo'lib, quyidagicha taqsimlangan:

- Zahira fondiga 5% – 95 763 655 so'm 00 tiyin;
- keyinchalik kapitallashtiruv uchun jamiyat rivojiga 69,97% 1 340 069 445 so'm 00 tiyin;
- Dividend to'lash uchun 25,03 % – 479 440 000 so'm 00 tiyin;

Bunda, har bir oddiy aksiyalar uchun dividend miqdori 272 so'm, har bir imtiyozli aksiyalar bo'yicha 300 so'mdan tashkil etgan, Jamiyat tomonidan oddiy aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlarni to'lash aksiyadorlarning dividendlarni olishga bo'lган teng huquqlariga rioya etilgan holda va har bir aksiyador taqdim etgan shaxsiy hisob raqamiga pul o'tkazish yuli bilan oltmis kuni mobaynida to'lab berildi va shaxsiy hisob raqam taqdim etmaganlarga yoki, dividendlarni to'lab berilishi yuzasidan belgilangan tartibda murojaat qilmagan aksiyadorlarning dividendlari depozit hisob raqamlariga o'tkazib qo'yildi. Shuningdek, shu bugungi qadar jami 372 775 258 (uch yuz yetmish ikki million yetti yuz yetmish besh ming ikki yuz ellik sakkiz) so'm miqdorida aksiyadorlarga to'lab berildi.

Bundan tashqari, 2023 yil 22 iyun kuni o'tkazilgan navbatdagagi umumiyligi yig'ilishining 7-masalasi 6-xatboshi "jamiyat yuridik shaxslariga hisoblangan 3 143 574 000 so'mlik kapitalizasiyadan 5 foiz bo'lган 157 178 700 so'm soliq ularga hisoblanib qo'lga tegishli belgilangan dividenddan ushlab qolinishi, ya'ni 5 foiz soliq chegirilib yuridik shaxslarga to'lanadigan dividendan 270 766 507,2 – 57 178 700 = 113 587 807,2 so'm dividend summasiga ularning xisob-raqamlariga o'tkazib beriladi" deb qayd etilgan bo'lib, shunga muvofiq yuridik maqomga ega bo'lган aksiyadorlarga tegishlicha dividendlar o'tkazib berilgan. Lekin, hozirgi kunda Jamiyatning o'tgan yillardagi taqsimlanmagan foydasi va 2022 yil yakuni bo'yicha olingan sof foyda hisobidan ustav fondini kapitalizasiya yo'li bilan oshirish amalga oshirilmaganligi, ya'ni, vaqtincha to'xtatilganligi sababli yuridik maqomga ega bo'lган aksiyadorlarga 2022 yil yakunlari bo'yicha hisoblangan dividendlar to'liq o'tkazib berilishini maqsadga muvofiq hisoblayman va navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilish tomonidan tegishli qaror qabul qilinishini taklif etaman.

Kun tartibidagi 3-masala. Mazkur masala yuzasidan so'z qimmatli qog'ozlar bo'yicha maslahatchi S.Axmatshayevga berildi.

Ma’ruzachi o’z so’zida, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to’g’risida”gi Qonunning 18-moddasida Jamiyatning ustav fondi qo’shimcha aksiyalarni joylashtirish yo’li bilan ko’paytirilishi mumkinligi ko’rsatilganligi, bunda jamiyatning ustav fondini uning o’z kapitali hisobidan ko’paytirishda qo’shimcha aksiyalar barcha aksiyadorlar o’rtasida mutanosib ravishda taqsimlanishi belgilab qo’yilgan.

Shunga muvofiq, Jamiyat ustav fondi 2022 yil yakuni bo'yicha olingen sof foyda va o'tgan yillardagi taqsimlanmagan foyda hisobidan 5 284 050 000 (besh milliard ikki yuz sakson to'rt million ellik ming) so'mga oshirilishi yuzasidan Jamiyat aksiyadorlarining 2022 yil yakunlari bo'yicha 2023 yil 22 iyun kuni o'tkazilgan navbatdagi umumiy yig'ilishida *tegishli qaror* qabul qilingan.

Ushbu qarorni ijrosini ta'minlash jarayonida ayrim masalalarga, jumladan, *“Jamiyatning o’tgan yillardagi taqsimlanmagan foydasi va 2022 yil yakuni bo'yicha olingen sof foyda hisobidan ustav fondini kapitalizasiya yo’li bilan oshirish”* jarayonida O’zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksining 483-moddasiga asosan to’lanadigan 5 foiz miqdoridagi soliqni to’lash yuzasidan ayrim yuridik shaxslar bilan muzokaralar olib borilganligi, xususan, Jamiyat aksiyadori “Dari-darmon” AJ tomonidan 2023 yil 15 avgustdagi 11-13/663-sonli ko’rsatmasida (tushuntirishida) qo’shimcha aksiyalar chiqarilishi natijasida kelib chiqqan soliq to’lovini jamiyatning taqsimlanmagan foydasi hisobidan to’lash taklifini berilayotganligi, bu esa qonunchilikga asosan jamiyat aksiyadorlari hisoblangan jismoniy shaxslarning huquqlarini cheklashga olib kelishi hamda yirik aksiyadorlar bir to’xtamga kelgunga qadar sof foyda hisobidan ustav fondini kapitalizasiya yo’li bilan oshirilishini vaqtincha to’xtatib turilishi yuzasidan tavsiya va taklif berilayotganligini ma'lum qildi. Shu bilan birga, mazkur masala yuzasidan ham navbatdan tashqari umumiy yig'ilish tomonidan tegishli qaror qabul qilinishi maqsadga muvofiqligi aytib o’tildi.

Kun tartibidagi 4-masala. Mazkur masala yuzasidan so’z qimmatli qog’ozlar bo'yicha maslahatchi S.Axmatshayevga berildi.

Ma’ruzachi o’z so’zida, Jamiyat aksiyadorlarining 2022 yil yakunlari bo'yicha 2023 yil 22 iyun kuni o'tkazilgan navbatdagi umumiy yig'ilishidagi 17-masalasi *“Qo’shimcha aksiyalar chiqarish to’g’risida qaror qabul qilish, aksiyalarni joylashtirish tartibi va shartlarini belgilash. Qo’shimcha aksiyalar chiqarilishi to’g’risidagi qarorni tasdiqlash”* yuzasidan qabul qilingan.

Bu masala yuzasidan Jamiyat tomonidan O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligiga qimmatli qog’ozlar chiqarilishini ro’yxatdan o’tkazish to’g’risidagi 2023 yil 19 iyuldagagi 07-09/200-sonli arizasi bilan topshirilgan (taqdim etilgan) hujjalarni to’plamida ayrim xato-kamchiliklar qayd etilganligi va ushbu xato-kamchiliklarni bartaraf etgan holda qayta murojaat qilinishi lozimligi ko’rsatib o’tilganligi sababli hamda sof foyda hisobidan ustav fondini kapitalizasiya yo’li bilan oshirish va yirik aksiyadorlar bir to’xtamga kelgunga qadar vaqtincha to’xtatib turilishi sababli qo’shimcha aksiyalar chiqarilishini ham vaqtincha to’xtatib turilishi yuzasidan tavsiya berilayotganligini ma'lum qildi.

Kun tartibidagi 5-masala. Jamiyat ijro organi a’zolari tarkibiga qo’shimcha va o’zgartirishlar kiritish.

Mazkur msala yuzasidan Kuzatuv Kengashi raisi I.Komilov so’z olib Jamiyat Ijro organini bir a’zosi o’z hohishi bilan ishdan bo’shaganligi sababli Jamiyat Ijro organiga yana bir a’zo saylanishi lozimligini aytildi.

Shunga muvofiq, Jamiyat ijro organi a’zosi Muattar Muxtorovna Xamidova ishdan bo’shaganligi sababli ijro organi tarkibidan chiqarilishi va uning o’rniga FFT va nazorat bo’limi

katta nazoratchi-provizori Mirzayev Otabek Odilovich a'zo etib saylanishi bo'yicha tavsija qilindi hamda navbatdan tashqari umumiyligini yig'ilish tomonidan tegishlicha qaror qabul qilinishi taklif etildi.

Shundan so'ng kun tartibidagi masalalar yuzasidan yig'ilish ishtirokchilari o'rtasida savol-javoblar, baxs-munozaralar bo'lib o'tdi.

Reglamentga ko'ra kun tartibidagi masalalar ko'rib bo'lingandan so'ng yig'ilish raisi qatnashchilardan kun tartibida ko'rilmagan masalalar bo'yicha ovoz berishlarini so'radi.

Ovoz berishda **1 261 880 dona** aksiyalar egalari qatnashdi.

Ovoz berish natijalari quyidagicha bo'ldi:

Masala	Rozi	Qarshi	Betaraf
1-masala	1 261 880	-	-
2-masala	1 261 880	-	-
3-masala	1 261 880	-	-
4-masala	1 261 880	-	-
5-masala	1 261 880	-	-

Ovoz berish natijalariga ko'ra "Farg'ona Dori-darmon" AJ aksiyadorlar umumiyligini yig'ilishi quyidagicha


QAROR QILADI:

- Umumiyligini yig'ilish reglamenti hamda sanoq komissiyasi raisi va a'zoligiga tavsija qilingan nomzodlar bir ovozdan tasdiqlansin.
- Jamiyat aksiyadorlarining 2022 yil yakunlari bo'yicha 2023 yil 22 iyun kuni o'tkazilgan navbatdagi umumiyligini yig'ilishining 17-masalasidagi qaror qismi quyidagicha o'zgariltsin:
Jamiyatning 2022 yil yakuni buyicha olingan sof foydasi – **1 915 273 100 so'm** quyidagicha taqsimlansin:
 - Zahira fondiga 5% – **95 763 655 so'm 00 tiyin**;
 - keyinchalik kapitallashtiruv uchun jamiyat rivojiga 69,97% **1 340 069 445 so'm 00 tiyin**;
 - Dividend to'lash uchun 25,03% – **479 440 000 so'm 00 tiyin**;17-masalasi 6-xatboshi "jamiyat yuridik shaxslariga hisoblangan 3 143 574 000 so'mlik kapitalizasiyadan 5 foiz bo'lgan 157 178 700 so'm soliq ularga hisoblanib qo'lga tegishli belgilangan dividenddan ushlab qolinishi, ya'ni 5 foiz soliq chegirilib yuridik shaxslarga to'lanadigan dividendan 270 766 507,2 – 57 178 700 = 113 587 807,2 so'm dividend summasiga ularning xisob-raqamlariga o'tkazib beriladi" deb qayd etilgan so'zlar **inobatga olinmasin** va Jamiyatning o'tgan yillardagi taqsimlanmagan foydasi va 2022 yil yakuni bo'yicha olingan sof foyda hisobidan ustav fondini kapitalizasiya yo'li bilan oshirish amalga oshirilmaganligi, ya'ni, vaqtincha to'xtatilganligi sababli yuridik maqomga ega bo'lgan aksiyadorlarga 2022 yil yakunlari bo'yicha hisoblangan **dividendlar to'liq o'tkazib berilsin**.
- Jamiyat aksiyadorlarining 2022 yil yakunlari bo'yicha 2023 yil 22 iyun kuni o'tkazilgan navbatdagi umumiyligini yig'ilishi-dagi 16-masalasi "Jamiyatning o'tgan yillardagi taqsimlanmagan foydasi va 2022 yil yakuni bo'yicha olingan sof foyda hisobidan ustav fondini kapitalizasiya yo'li bilan oshirish" yuzasidan qabul qilingan qarori bekor qilinsin.

Jamiatning o'tgan yillardagi taqsimlanmagan foydasi hisobidan ustav fondini kapitalizasiya yo'li bilan oshirish" masalasi aksiyadorlarning kelgusi yillarda o'tkaziladigan navbatdagi umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilishi nazarda tutilsin va belgilab qo'yilsin.


4. Jamiat aksiyadorlarining 2022 yil yakunlari bo'yicha 2023 yil 22 iyun kuni o'tkazilgan navbatdagi umumiy yig'ilishidagi 17-masalasi "Qo'shimcha aksiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish, aksiyalarni joylashtirish tartibi va shartlarini belgilash. Qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarorni tasdiqlash" yuzasidan qabul qilingan qarori bekor qilinsin.
Qo'shimcha aksiyalar chiqarish masalasi aksiyadorlarning kelgusi yillarda o'tkaziladigan navbatdagi umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilishi nazarda tutilsin va belgilab qo'yilsin.
5. Jamiat ijro organi a'zosi Muattar Muxtorovna Xamidova ishdan bo'shaganligi sababli ijro organi tarkibidan chiqarilsin va uning o'rniga FFT va nazorat bo'limi katta nazoratchi-provizori Mirzayev Otabek Odilovich a'zo etib saylansin.

Yig'ilish raisi:



I.Komilov

Yig'ilish kotibi:



A.Nuritdinov